



MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI  
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING  
JIZZAX FILIALI

**ZAMONAVIY INNOVATSION  
TADQIQOTLARNING  
DOLZARB MUAMMOLARI  
VA RIVOJLANISH  
TENDENSIYALARI:  
YECHIMLAR VA ISTIQBOLLAR  
RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIK  
ANJUMAN MATERIALLARI  
TO'PLAMI**



15-16-MAY  
2026-YIL



Google  
Scholar

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY  
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**

**ZAMONAVIY INNOVATSION TADQIQOTLARNING DOLZARB  
MUAMMOLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI: YECHIMLAR  
VA ISTIQBOLLAR**

*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami  
(2026-yil 15-16-may)*

**JIZZAX-2026**

Tadqiqot bir qancha cheklovlarni hisobga olishni talab qiladi. Birinchidan, eksperiment bitta muassasada o'tkazilganligi umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Ikkinchidan, LLM-generatsiya qilingan kontent lingvist mutaxassislar tomonidan muntazam nazorat qilinmasa, aniqlik va uslub muammolari yuzaga kelishi mumkin. Uchinchidan, Elov et al. (2024) ta'kidlaganidek, LLMlar ba'zan kontekstni noto'g'ri tushunib, ahamiyatsiz javoblar berishi mumkin, bu esa tizimga inson nazoratini zarur qiladi.

## **Xulosa**

Ushbu tadqiqot LLM-asosidagi adaptiv tizimlarning oliy ta'lim talabalarida leksik kompetensiyani shakllantirishdagi texnologik samaradorligini empirik jihatdan tasdiqlaydi. Nazorat guruh eksperimenti natijalari ko'rsatadiki, LLM-adaptiv yondashuv an'anaviy usullarga nisbatan leksik ko'lam, leksik aniqlik, so'z xilma-xilligi va uzoq muddatli leksik saqlash ko'rsatkichlarida statistik ahamiyatli yutuqlarga erishishni ta'minlaydi.

Kelajak tadqiqotlar ko'proq muassasa va turli til profillari bo'yicha keng qamrovli retrospektiv tadqiqotlar orqali ushbu natijalarni tekshirishi, shuningdek LLM-adaptiv tizimlarning leksik kompetensiyaning chuqurlik va tarmoq qismlari (kollokatsiya, morfologik bilim) ga ta'sirini batafsil o'rganishi lozim.

## **Adabiyotlar**

1. Achiam J., Adler S., Agarwal S. va boshqalar. "GPT-4 Technical Report." arXiv, 2023.
2. Brown T., Mann B., Ryder N. va boshqalar. "Language Models are Few-Shot Learners." Advances in Neural Information Processing Systems, 2020.
3. Elov B., Xusainova Z., Qosimova S. "Katta til modellari." O'zbekiston: Til va Madaniyat jurnali, 2024.
4. Huang J., Gu S. S., Hou L. va boshqalar. "Large Language Models Can Self-Improve." arXiv, 2022.
5. Inan H., Upasani K., Chi J. va boshqalar. "Llama Guard: LLM-based Input-Output Safeguard for Human-AI Conversations." arXiv, 2023.
6. Naveed H., Khan A. U., Qiu S. va boshqalar. "A Comprehensive Overview of Large Language Models." arXiv, 2023.

## **TURIZM INFRATUZILMASIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMLARI**

**Saloxitdinov Sherzod Farxodovich**

"Iqtisodiyot va turizm" kafedrası dotsenti

**Allanazarova Charos Asliddin qizi**

Milliy universiteti Jizzax filiali Iqtisodiyot yo'nalishi 331-25 guruh talabasi  
allanazarova.charos.123@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Turizm sohasining jadal rivojlanishi infratuzilmani modernizatsiya qilish va kengaytirishni talab qiladi, bu esa o'z navbatida katta hajmdagi investitsiyalarni jalb etishni zarur qiladi. Maqolada davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning moliyaviy, institutsional va infratuzilmaviy mexanizmlari, jumladan, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, soliq yengilliklari va davlat-xususiy sheriklik kabi vositalar ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy to'siqlar va ularni bartaraf etish yo'llari tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** turizm infratuzilmasi, investitsiyalar, jalb qilish mexanizmlari, imtiyozli kreditlar, subsidiyalar, davlat-xususiy sheriklik, soliq yengilliklari.

Bugungi globalashuv davrida turizm iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylanib, mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shmoqda. Biroq turizm sohasining barqaror o'sishi, avvalambor, zamonaviy va raqobatbardosh infratuzilmaning mavjudligiga bog'liq. Xususan, transport tarmoqlari, mehmonxonalar, yo'l va kommunikatsiya tizimlari, sayyohlik markazlarining holati turizm sanoatining samaradorligini belgilaydi.

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilishda eng keng tarqalgan vosita imtiyozli kreditlash va subsidiyalardir. O'zbekistonda mehmonxona qurilishi uchun tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratilmoqda: viloyat markazlari va turistik zonalarda kreditlar miqdori 30 mlrd so'mgacha, mamlakatning boshqa hududlarida esa 10 mlrd so'mgacha yetkazilgan. Kreditlarning imtiyozli shartlari tadbirkorlarni investitsiya loyihalariga jalb qilishda muhim rol o'ynaydi.

Subsiyalar mexanizmi ham investitsiyalarni qo'llab-quvvatlashda muhim vosita hisoblanadi. O'zbekistonda modulli mehmonxonalarni qurish va jihozlash uchun tadbirkorlik subyektlariga bir martalik subsidiyalar ajratiladi. "I" toifadagi modulli mehmonxonadagi har bir joy uchun 10 mln so'm, "II" toifadagilar uchun 7 mln so'm, "III" toifadagilar uchun esa 5 mln so'm subsidiya belgilangan. Ushbu chora chekka va tog'li hududlarda turizm infratuzilmasini rivojlantirish imkonini beradi.

Shuningdek, mamlakatimizdagi qator normativ-huquqiy hujjatlarda, xususan, Prezident Farmonlarida turizm sohasiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari belgilangan. Xususan, turistik infratuzilmani yaxshilash va xorijiy turistlar oqimini oshirish maqsadida qo'shimcha chora-tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lib, ular orqali to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni sohaga jalb etish rag'batlantiriladi.

Investitsion faoliyatni institutsional qo'llab-quvvatlash investitsiyalarni jalb qilish samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Bu borada davlat tomonidan qulay biznes muhiti yaratish va qonunchilik bazasini takomillashtirish muhim o'rin tutadi. Xususan, O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida turizm loyihalarini amalga oshirish mexanizmlari joriy etilgan. Amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilishda tizimli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Investitsiyalar hajmi turizm sohasiga yo'naltirilayotgan bo'lib, sohada 130 ming mehmonxona o'rinlari yaratilgan va 2025-yilda 42 mlrd dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish rejalashtirilgan.

Biroq investitsiyalarni jalb qilishda muayyan to'siqlar ham mavjud bo'lib bular turizm sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirishda ya'ni loyiha-smeta

hujjatlarini tayyorlashdagi murakkabliklar, yer ajratish jarayonlarining uzoq davom etishi, moliyaviy kafolatlarning yetarli emasligi, mahalliy hokimiyat va xususiy sektor o'rtasidagi muvofiqlashtirish muammolari kabi omillar to'sqinlik qilmoqda.

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilishda soliq imtiyozlari va yengilliklari muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda 5000 gektar yer mehmonxonalar va turistik obyektlar qurish uchun auksionga qo'yilmoqda, yer uchun to'lov olinmaydi, davlat esa loyihada ulushdori sifatida ishtirok etadi. Tadbirkor bu ulushni 10 yil ichida qaytarib sotib olishi yoki oldindan to'lab, 20 foizlik chegirmaga ega bo'lishi mumkin. Ushbu mexanizm tadbirkorlarning boshlang'ich xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi va investitsiya loyihalariga qiziqishni oshiradi.

Bundan tashqari, mehmonxonalar uchun turistik yig'im poytaxt va yirik markazlardan tashqarida bekor qilingan, bu esa hududiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Mehmonxona va oilaviy mehmon uylari o'rtasida 1 million dollarlik mukofot jamg'armasiga ega tanlov o'tkazilishi esa sifat va raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan muhim rag'batdir.

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb qilish murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni samarali amalga oshirish turli mexanizmlarning uyg'unligini talab qiladi. Mamlakatimizda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash (imtiyozli kreditlar, subsidiyalar), institutsional mexanizmlar (davlat-xususiy sheriklik, qulay qonunchilik bazasi) va infratuzilmaviy yengilliklar (yer va soliq imtiyozlari) orqali ijobiy natijalarga erishilmoqda.

Biroq, investitsiyalarni jalb qilishda mavjud to'siqlarni bartaraf etish, jumladan, qonunchilik va tartibga solish tizimini takomillashtirish, loyiha hujjatlarini tayyorlash jarayonlarini soddalashtirish kabi masalalarga alohida e'tibor qaratish lozim

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Modulli mehmonxonani qurish va jihozlash uchun subsidiya ajratish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori. Lex.uz.

2. Fergana Agency. (2025). Uzbek Authorities Expand Support Measures for Companies in IT and Tourism

3. Biletska, N. (2024). Attracting investments for the development of the tourism sector: Institutional aspect. *Innovation and Sustainability*, 4(3), 160-168.

## **TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING ELEKTRON-DIDAKTIK TA'MINOTI**

**Axatqulov Anvar Almasovich**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi,

[axatqulovanvar3@gmail.com](mailto:axatqulovanvar3@gmail.com),

Abdualimova Muattar Akmal qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

[muattarabdualimova6@gmail.com](mailto:muattarabdualimova6@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada oliy ta'limda tadqiqotchilik kompetensiyasini rivojlantirishda elektron-didaktik ta'minotning roli, tuzilmasi va amaliy qo'llanilish